Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317591

1. Вёльтье Йёрг. Коллекция формул для анализа экономики предприятия. М., Финансы и статистика», 2010
2. Савиных В.Н. Математическое моделирование производственного и финансового менеджмента / В.Н. Савиных. - М.: КноРус, 2018. - 256 с.

IQTISODIY O‘SISH OMILLARINING EKONOMETRIK MODELLARINI QIYOSIY TAHLILI

Saliev Bahodir Kamilovich
TDIU dotsenti, i.f.n.
Isroiljonov Nurmuxammadbek Sherzodbek o‘g‘li
TDIU AF “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada milliy iqtisodiyotning o‘sishining suratlari barqarorligini ta’minlovchi va unga ta’sir etuvchi turli omillarni hisobga oluvchi ekonometrik modelini qiyosiy tahlili beriladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, omil, investitsiya, ekonometrik model, kapital qaytimi,

Mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotining har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uning asosiy ustivor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilab kelinadi. Bu esa iqtisodiyotimizning barcha sohalarini mutonosib rivojlantirish va ishlab chiqaruvchi kuchlardan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Bu masalani hal qilish, bir tomondan uning manbalarini chuqur, atroflicha o‘rganishni, ikkinchi tomondan, esa uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi juda ko‘p turdagi ob’ektiv va su’ektiv omillarni hisobga olishni takazo kiladi.

Milliy iqtisodiyotimiz rivojlanish darajasidagi o‘zgarishlarni, ularning keltirib chiqaruvchi (ob’ektiv va sub’ektiv) sabablarni o‘rganish, ular orasidagi o‘zoro bog‘liqliklarni aniqlash va o‘lchashda, hamda samaradorlik darajasini baholashda ekonometrik modellardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Ekonometrik modellardan foydalanish, oddiy ananaviy usullardan foydalanishga nisbatan afzalligi, uning yordamida ko‘plab omillarni ta’sirini o‘lchash va baholash imkoniyati kattaligidir.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish sabablarini o‘rganish, ularni baholash hamda uning istiqbolini belgilash masalasida qator tadqiqotlar o‘tkazilgan va o‘tkazilayotgan bo‘lsada, bu masala kun tartibida turgan eng asosiy, dolzarb masalalardan biri sifatida qolib kelmokda. Chunki, iqtisodiy o‘sish masalasi juda ko‘p qirrali bo‘lib, uning barcha tomonlarini to‘la hisobga olish imkoniyati chegaralangandir.

Published: 24.05.2025

Cite this article: Saliev Bahodir Kamilovich, Isroiljonov Nurmuxammadbek Sherzodbek o‘g‘li (2025). Iqtisodiy o‘sish omillarining ekonometrik modellarini qiyosiy tahlili. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317591

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

O‘rni kelganda shuni alohida takidlash lozimki, milliy iqtisodiyotning o‘sish masalalariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar o‘tkazilgan va turli modellar tavsiya qilingan bo‘lsada, ushbu tadqiqotlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi omillarning o‘zoro bog‘liq holda o‘rganish va ularni roliga umumiy holda baholashga kam e’tibor qaratilgan.Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- investitsiyalarnig milliy va xorijiy sektorlar bo‘yicha taqsimoti va iqtisodiy o‘sishdagi ulushi masalasi;
- investitsiyalarni o‘sishi natijasida mehnat unumdorligi oshishi va mehnat bandligi darajasini o‘zgarishi masalasi;
- milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga iste’mol va jamg‘arma, kapital va mehnat omillarini, milliy va xorijiy investitsiyalarni kompleks baholash.

Ushbu vaziyatlarni hisobga olib biz milliy iqtisodiyotimizni barqaror o‘sishini ta’minlovchi omillarni ekonometrik modelini takomillashtirishga harakat qildik. Iqtisodiyotga ta’sir etuvchi omillarni har tomonlama asoslash, uning miqdoriy jihatdan ifodalovchi qiymatlarni aniqlash hamda uni boshqa omillar ta’siridan ajratib olish (eliminatsiya jarayoni) ekonometrik modellarni tuzish va ularni takomillashtirishning eng murakkab bosqichi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni o‘sishini ta’minlovchi ekonometrik modellarni tuzish va takomillashtirishda biz asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratdik:

birinchidan, mavjud ekonometrik modellarning hususiyatini o‘zgartirmagan holda sektorlar, milliy iqtisodiyot bo‘yicha tahlil qilish uchun moslashtirishga;

ikkinchidan, investitsiya omilini sektorlar bo‘yicha iqtisodiy o‘sishdagi ulushiga kapital qaytimi ta’sirini aniqlashga va

uchinchidan, mehnat unumdorligini o‘stirishda xorijiy investitsiyalar xajmini oshib borishi ta’sirini aniqlashga xakrakat kildik.

Iqtisodiy o‘sish omillari samaradorligini tahlil qilish va baholash uchun quyidagi ekonometrik modellardan foydalanish tavsiya etiladi:

1) iqtisodiy o‘sishning erishilgan darajasiga yangidan kiritilayotgan investitsiyaning solmog‘i va samaradorligi ta’sirini aniqlash uchun quyidagi modeldan foydalanish mumkin:

$$Y = [(s(1-r)) * (1-n)A^*] + [(s(1-r)) * nB^*].$$

bu yerda, **Y**– iqtisodiy o‘sish darajasi; s–yalpi jamg‘arma me’yori; r–oralik maxsulotini YaIMdagi ulushi; n–jami investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar ulushi; A^* va $\mathbf{B}^*$ - milliy va xorijiy sektorlar investitsiyasini kapital kaytimi.

Taklif qilinayotgan modelning boshqa avtorlar tomonidan tavsiya qilingan modellardan farqli tomoni shundaki, bu yerda milliy va xorijiy sektorlar investitsiyasining ulishi alohida hisobga olingan.

2) tarmoqqa yangi kiritilgan investitsiyani iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan ulushini aniqlash uchun quyidagi modeldan foydalanish mumkin:

$$y = s(1-r)[(1-n)\sum_{j=1}^{m} a_j A_j + n\sum_{j=1}^{m} b_j B_j].$$

bu yerda, A_j va B_j–milliy va xorijiy sektorlarning j-chi tarmog‘ini kapital qaytimi; α_j va β_j–iqtisodiyotga qilingan milliy va xarijiy investitsiyalar tarkibida j-chi tarmoqqa qilingan investitsiyani solmog‘i; m–tarmoqlar soni.

Bu yerda ham milliy va xorijiy investitsiyalar hisobga olingan bo‘lsada, bizning iqtisodiyotimizda xorijiy investitsiyaning ulushi sanoat tarmog‘idan tashqari boshqa tarmoqlarda o‘ta kichik ulushda ekanligini hisobga olib, jami investitsiyani tarmoqlarda milliy deb belgilab olamiz, u holda formulani ko‘rinishi

$$y = s(1-r)\sum_{j=1}^{m} a_j A_j$$

ko‘rinishga keladi.

3) kapital qaytimi va investitsiyalar solmog‘ini hisobga olgan holada iqtisodiy o‘sish istiqbolini belgilash uchun quyidagi ekonometrik modeldan foydalanishni tavsiya etamiz:

$$Y_F = Y_S + S(1-r)(A^* - B^*)((1-n)_F - (1-n)_S),$$

Yuqorida keltirilgan ekonometrik modellar milliy iqtisodiyotimizni barqaror o‘sishini atroflicha baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiy tizim hususiyatlaridan kelib chiqib iqtisodiy o‘sish omillarini samaradorligini oshirish uchun investitsiya omilining iqtisodiy o‘sish sur’ati asosidagi samarali ko‘rsatkichini ishlab chiqish va bandlik darajasini o‘stirish uchun zaruriy kapital omilining o‘sish sur’atini o‘zgarish ko‘rsatkichini hisoblab topish uchun ham imkonini yaratadi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мадрахимов У.А., Салиев Б.К. Вопросы совершенствования моделирования факторов экономического роста. Международная конференция РНХА.Т., 2007

2. Solow, Robert M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. // Quarterly Journal of Economics 70 (February), 1956